

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA ISHQ MAVZUSI

Ko‘palova Maxfuza Hamid qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

*Ko‘rgali husnungni zor-u muftalo bo‘ldum sanga,
Ne baloliq kun edikim, oshno bo‘ldum sanga*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning g‘azallarida ishq haqida ma‘lumot berilgan. Oshiqona mavzudagi g‘azallari asosida yaratilgan.

Kalit so‘z: Alisher Navoiy ijodida ishq, "Qaro ko‘zum", "Kelmadi", "Ko‘rgali husnungni zor-u muftalo bo‘ldum sanga" deb boshlanuvchi g‘azallari.

Alisher Navoiyning ijod yo‘li eng avvalo ko‘ngil yo‘lidir. Navoiy hayotga boshqacha nigoh bilan nazar tashlagan. U har bir narsadan boshqacha ma‘no izlagan. Alisher Navoiy she‘riyatda takrorlanmas ijodkor. So‘z mulking sultoni Alisher Navoiy sharq adabiyotida biror shoirga Alisher Navoiyichalik ko‘p g‘azal yozish nasib bo‘lmagan. Ammo gap faqat sonda emas. Alisher Navoiy har bir g‘azalda qalbidan chiqqan bir mehr muhabbat g‘azallarida aks etgan. G‘azallarning har biri buyuk ijodkorning benazir san‘ati va teran tafakkuridan guvohlik beradigan badiiy durdon, mo‘jizadir. Alisher Navoiy ijodida ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Alisher Navoiy ishq deganda faqat yorga bo‘lgan ishq ya‘ni majoziy ishqni muhabbatni kuylamasdan haqiqiy ishq ya‘ni Allohga bo‘lgan ishqni tarannum qiladi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tug‘yonlari, xususan g‘azallari uning yigitlik davrida yozilganlikiga guvoh bo‘lamiz. Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko‘zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo‘lgan va kuylanadigan g‘azallari yaxshi misol bo‘la oladi. Alisher Navoiyning "Ilk devoni" muhlislari tomonidan tuzilgan.

"Qaro ko‘zum" sakkiz baytli g‘azal, el orasida mashhur g‘azallardan hisoblanadi. G‘azalning boshidan oxirigacha Navoiy har bir baytda kutilmagan timsollardan tasvir vositalaridan foydalanilgan. Oshiq hatto jonidan kechishga ham tayyor turadi. Bu ham ishqning eng yuqori nutqasidir. Oshiqning o‘z yoriga muhabbati shunchalar kuchliligi tasvirlanadi. Boshqa ijodkorlarda ham mumtoz she‘riyatimizda ko‘z tarifiga bag‘ishlangan qancha baytlar keltirilgan. Ko‘zning birgina sifati uning qaroligi orqali oshiqning hayolini o‘g‘irlagan uning qalbiga sehr olovini yoqqanligidir.

Alisher Navoiy ijodida "Kecha kelgumdur debon" deb boshlanuvchi g‘azali muhabbat mavzusida yozilgan oshiqona g‘azallaridan biridir. G‘azaldagi oshiq, ya‘ni lirik qahramon visol uchun va‘da bergan sevikli yorini kutish iztiroblari tasviri asosiga qurilgan. Kecha boraman deb visolga va‘da bergan sevikli yor o‘z vaqtida kelmay

qoladi. Ya'ni, va'dasiga vafo qilmaydi. Visolga umidvor oshiqning ko'zlariga tong otguncha uyqu kelmaydi. U yorini tong otgunga qadar ham umidvor kutadi. Ammo yor tongotarda ham kelmaydi. Va'daga vafosiz yorning jabr-u sitamlaridan oh-voh chekish bilan kifoyalanish chinakam oshiqning ishi emas.

Shu kungacha she'riyatida inson dardi va hasratlarini, o'z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o'tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiyning ishqiy mavzuda yozgan she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagi ko'p g'oya va timsollar, tasviriy detallar an'anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko'p o'rin beradi. «Yor» — bu dunyo go'zalligina emas, uningcha, bu — butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o'zining tasavvufiy she'rlarida yorning qoshi, ko'zi, zulfi, sochi (va h.k.) deganda Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go'zalliklarini ko'zda tutadi. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid she'rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo'lib, inson manfaatlariga, uning e'tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sangadeb boshlanuvchi g'azalida ham ishq kuylanadi. Mazkur g'azal ishqiy mavzuda. G'azal an'anaviy turdagi 7 baytli g'azaldir.

Unda iztirob va tasalli ajib bir uyg'unlikda tasvirlangan. She'r an'anaviy, oshiqning ma'shuqaga dil izhori bilan boshlanadi:

Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga,

Ne baloliq kun edikim, oshno bo'ldum sanga:

Oshiq-yor husnini ko'rishga zor. U ishq deb atalgan dardga muftalo bo'lgan. Oshiq yorning husnini ko'rgandan beri unga zor u asir bo'lib qoladi. Shu sababli, u yor bilan oshno bo'lgan kunni «baloliq» kun deb hisoblaydi..

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,

Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.

Har qancha aytdim kun -kundin uzay sendan ko'ngul deb, ammo har kundagidan -da senga muftalo oshiq bo'lib qoldim.

Men qachon dedim, vafo qilg'il manga - zulm aylading,

Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga - bo'ldum sanga.

Men senga qachon vafo qil menga deb aytsam, sen zulm qilding menga, Sen qachon fido bo'l desang senga fido bo'ldim .

Qay pari paykarg'a dersen, telba bo'lding bu sifat,

Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga, bo'ldum sanga.

Qaysi pariga aytarsan, telba bo'lib qilding deb, ey pari qomatligim, menga nima qilsang qilki, men senga, devona oshiq bo'lib qoldim".

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,

Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Ey ko'ngul, senga nasihat qildim, quloq solmading, endi sen ham ovora bo'ladigan bo'lding .Boshingdagi yuz balo yetmagandek, men ham sanga bir balo bo'ldim .

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

Jomi Jam bilan Xizr payg'ambar suvi mening nasibim bo'ldi. Ey soqiyo, tarki dunyo qilib gado bo'ldim sanga. Bu misralarda Alisher Navoiy Jomi Jam deb Jamshid jomini tasvirlaydi. Xizrn tasvirlaydi .Xizr tiriklik suviniizlab yo'lga chiqqan va uni topgan shaxsdir .Bu misralar orqali talmeh san'atini keltiradi. Talmeh-misralarda tarixiy shaxslarni ,payg'ambarlarni keltirish san'ati. Soqiyo ga murojaat qiladi va bu nido she'riy san'atini tashkil qiladi.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

To Navoiydek senga asir-u benavo bo'lmagunimcha, g'am-g'ussa so'zidan bir kuy eshitmadim"Bu baytning birinchi misrasidagi "navoe" so'zi bilan ikkinchi misradagi " Navoiy " so'zi o'rtasida o'zakdoshlik bor.

Bu kabi she'rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Alisher Navoiyning ishqiy she'rlarini faqat bir yorgaga qaratilgan, deyish qiyin. U hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go'zalliklarni nazokatli tuyg'ularni qadrlagan, noyob so'z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan. Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o'z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o'zining insoniy norozilik tuyg'ularini olovli she'riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog'liq tasvirlari rang-barang va boy bo'lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko'p qirralarini — shodlikni ham xafagarchilikni ham tasvirlagan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy "Ilk devon"
2. Alisher Navoiy «G'aroyib us-sig'ar» devoni.
3. Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006
4. "O'zbek tilining izohli lug'ati" «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti
www.ziyouz.com
www.uzauz
www.ilm.uz